

KICHIK BIZNESGA TA’SIR QILADIGAN OMILLARNING STATISTIK TAHLILI**Ergashov Sultanmurod**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, dotsent

Komiljonov Bobur

Andijon mashinasozlik instituti, assistent

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik biznesga ta’sir qiluvchi omillarni ta’sirini o‘rganishda va baholashda dastlabki statistik tekshirishlar olib borilishi zarurligi hamda omillarni guruhlariga ajratish muhim ahamiyatga egaligi zarurati muhimligiga bag‘ishlangan.

Kalit so'zlar: biznes, o'lchov, statistika, namuna, tanlab olish, gistogramma.

Xalqaro statistik amaliyotda kichik biznes sub’ektlari o‘lchovi bo‘yicha yagona bir aniq mezonlar mavjud emas. Bunda har bir mamlakat o‘z iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishi kichik biznes faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarga mos bo‘lgan mezonlardan foydalanadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes sub’ekti maqomini belgilaydigan ko‘rsatkichlar soni 50 tadan ortiq [1-3,5].

Har bir mamlakatda o‘zining tabiiy sharoiti og‘ir va yengil sanoatining rivojlanish darajasi, tabiiy boyliklarini tahminiy miqdori, bu boyliklarni o‘zlashtirishga ketadigan harajatlar, kichik biznesni rivojlanishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Bu jarayonda yetuk mutahassislar tayorlash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Mamlakatdagi ishlab chiqarish jarayonlari yetuk mutahassislarni uzluksiz tayorlab borish zaruriyati doimo kun tartibida turadi.

Har qanday mamlakatda kichik biznesni rivojlanish jarayoniga qator omillar ta’sir qiladi. Kichik biznesga ta’sir qiluvchi omillarni ikkita kata guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga boshqarilmaydigan omillar (boshqarishni iloji bo‘lmaydigan omillar). Ikkinchi guruhga boshqariladigan omillar kiradi.

Boshqariladigan omillarni ikki guruhga ajratish mumkin: yengil boshqariladigan omillar, qiyin boshqariladigan omillar. bu omillarni qaralayotgan jarayonga ta’sirini o‘rganish uchun qator kurashishlar, tajribalar o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. O‘tkazilgan tajribalardan olingan statistik ma’lumotlarni tahlil qilishga to‘g‘ri keladi. Bunday tahlil dastlabki statistik tekshirishlar yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun olingan statistik ma’lumotlarni miqdorish ko‘rsatkichlarga o‘tkazish kerak. Statistik ma’lumotlar miqdoriy ko‘rsatkichlarga o‘tkazilgandan keyin dastlabki statistik tekshirishni amalga oshirish mumkin. Bunda :

1. Variatsion qator tuziladi.
2. Olingan tanlanmaning paligoni quriladi.
3. Tanlanmaning taqsimoti quriladi.
4. Gistogramma quriladi.
5. Nomalum parametrlarning nuqtaviy baholari quriladi.
6. Agar tanlanmaning hajmi (statistik ma’lumotning soni) kichik bo‘lsa no‘malum parametrغا intervalli baho quriladi.
7. Nomalum taqsimot funksiyaga baho quriladi.

Yuqoridagi dastlabki tekshirishlar natijasida jarayonga ta’sir qiluvchi muhim omillarning ko’rsatkichlari aniqlanadi.

Agar olingan statistik ma’lumot (tanlanma) x_1, x_2, \dots, x_n ning hajmi $n = N$ yetarlicha katta bo’lsa dastlabki statistik tekshirishlarni osonlashtirish uchun G.A.Sterjest fo’rmulasidan foydalanish kerak bo’ladi [4], buning uchun h qadam quyidagi formula bo’yicha tanlanadi

$$h = \frac{x_{max} - x_{min}}{1 + 3.32 \lg N}$$

bunda tanlanmaning taqsimotini qurishda intervallar soni k quyidagicha aniqlanadi

$$k = [1 + 3.32 \lg N]$$

Bunda k butun son.

Agar statistik ma’lumotning (tanlanmaning) hajmi $N = 1000$ bo’lsa tanlanma taqsimotini qurishda intervallar soni

$$k = [1 + 3.32 \lg 1000] = [1 + 3.32 \cdot 3] = 11$$

Adabiyotlar:

1. Madrahimov U.A., Dadaboeva M.M. Analysis of the development level of small business in the regions of Andijan province. Mashinasozlik ilmiy-texnika jurnali. AndMI, Maxsus son №3. 2022 y. (OAK Rayosatining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori)
2. Dadaboeva M.M. Kichik biznes rivojlanishida xorijiy mamlakatlar tajribasining o’ziga xos xususiyatlari». //«Science and Education» Journal, June 2021-/ Volume 2 Issue.
3. Dadaboeva M.M. Kichik biznes rivojlanishini belgilovchi omillar. // O’zbekiston va avtomobil sanoati: Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi (xalqaro ilmiy-amaliy anjuman), Andijon mashinasozlik instituti, 29-30-iyun 2021-yil.
4. Ф.Миллс. Статистические методы. государственное статистическое издательство, Москва 1958.
5. Abdurahmonova G.Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta’minlash. Monografiya. T. 2013 y. 74- b.
6. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG’BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O’RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>